ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Резюме. Ushbu maqolada antropotsentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri – aksiologinvistika, uning tadqiq masalalari, qadriyat tushunchasi, qadriyat turli haqida ma’lumot berildi.

Resume. This article provides information about one of the new branches of anthropocentric linguistics – *axiolinguistics*, its research issues, the concept of value, and the types of values.

Резюме. В данной статье представлена информация об одном из новых направлений антропоцентрической лингвистики – *аксиолингвистике*, её исследовательских задачах, понятии ценности и видах ценностей.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ANDIJON DIALEKTAL ZONASI HAQIDA

Sobirov Abdulhay Shukurovich,
Andijon davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Bugungi dunyo qaltis va tahlikali jarayonlarni boshidan kechirmoqda. Shu bilan birga, davlatlar va millatlar integral tarzda rivojlanib, bir-birlarini o‘rganishga, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy tomondan mustahkam aloqalar o‘rnatishga intilmoqda. Buning natijasida dunyoning lisoniy manzarasi ko‘z oldimizda yanada yaqqolroq namoyon bo‘lib bormoqda.

YUNESKOning «Ethnologue» tillar kartasida qayd etilishicha, yer yuzida 142ta til oilasiga tegishli 7151ta til mavjud[1].

Yana bir manbada tillarning soni 2700ta, dialektlari bilan qo‘shib hisoblaganda 7000dan ortiq ekanligi aytiladi[2].

Ular ichida so‘z boyligining kattaligi, ifoda imkoniyatlarining kengligi, o‘ziga xos betakror latofati bilan o‘zbek tili alohida ajralib turadi. U jahonda o‘ziga yarasha nufuzga, qadim tarixga va son jihatidan juda ko‘p shevalar hamda dialektlarga ega bo‘lgan tillardan biridir. Shunga ko‘ra, hozirgi o‘zbek adabiy tilining shaklllanishi va taraqqiy topishida sheva va dialektlarning o‘rni katta bo‘lgan. Lekin, alohidaa ta’kidlash joizki, o‘tgan asrning boshlariga qadar o‘zbek tiliniing dialektal asoslarini o‘rganishga deyarli e’tibor qaratilmagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1921-yilga qadar faqat o‘zbek va sort dialektlari bir-biridan farqlangan[3].

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, hayotimizga ko‘plab yangilikning kirib kelishi o‘zbek tilini bir nechta ilmiy yo‘nalishlarda tadqiq etishga keng yo‘l ochib berdi. Buni davrning o‘zi talab qilmoqda. Dunyo tillari bilan tenglashish, yetakchi tillar qatoridan joy olish uchun, avvalo, tilimizninig ichki imkoniyatlarini chuqur o‘rganishimiz kerakligini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Hozirga kelib o‘zbek tili yuzlab dialektlarni o‘z ichiga olgan dunyoning eng baquvvat tillaridan biriga aylandi. *Uzcaa.uz* saytida ta’kidlanishicha, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning soni 50 milliondan ortib ketdi va so‘zlashuvchilarning soni bo‘yicha dunyoda 27-pog‘onani band etib turibdi[4] . Bu holat bizga, ya’ni o‘zbek tili sohiblariga katta mas’uliyat yuklaydi. O‘zbek tilining barcha sohalari bo‘yicha jahon stan-

[1] https://ru.wikipedia.org.
[2] https://www.google.com/search.
[3] https://e-trans.ru/languages/Uzbek.
[4] uzcaa.uz.

dartlari asosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishimiz va o‘zbek tilining mamlakatimiz hamda chet ellardagi nufuzini takomillashtirishga astoydil kirishishimiz talab yetilmoqda.

Bugun dunyo tilshunosligida gibrid tadqiqotlar yuzaga kelgan. Fanlararo integratsiya qamrovi nihoyatda kengaygan. Manbalarda ta’kidlanishicha, tilshunoslikning boshqa sohalar bilan kesishgan nuqtalardagi yo‘nalishlarning adadi yuzdan oshdi. Shulardan biri areal lingvistika sanaladi.

Professor S. Ashirboyevning ta’kidlashicha: «*Areal lingvistikaning maqsadi til va dialektlarning hududiy xususiyatlarini o‘rganishdir, ya’ni u muayyan til hududini frontal qamrab olish, undagi keng tarqalgan va shu hududda dominant tilning aloqadagi tillarga ta’siri va o‘zaro ta’sirini tadqiq qiladi, til massividagi tillarning dialektal zonalarini belgilaydi hamda zonadagi tayanch dialektning xususiyati va uning atrof (periferiya) tillari va shevalari bilan munosabatini ilmiy talqin qiladi*».[1]

Milliy tillarning har birini areal o‘rganish shu til tizimiga xos bo‘lgan alohida belgilarni qayd etish, tillarning ichki rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, tilning ichki bo‘linishlari, bu bo‘linishlarning o‘zaro va umumtilga nisbatan aloqalarini tadqiq etish imkoniyatlarini taqdim etadi. O‘rni kelganda, ta’kidlash joizki, bugunga kelib o‘zbek tilshunoslari qo‘lida sheva va dialektlar bo‘yicha yetarlicha ma’lumotlar to‘planib bo‘ldi. Bugun ular ustida areal aspektda ish ko‘rish vaqti yetib keldi.

O‘zbek tilining dialektal zonalarni, azonallarni, fokus nuqtalarni, shevalarningg tarqalish chegaralarini aniqlash va shu asosda ularni areal xaritalarga tushirish ishlaarini boshlashimiz kerak. Buning uchun mavjud sheva va dialektlar ustida jiddiy kuzatishlar olib borish lozim bo‘ladi.

To‘plangan materiallarimiz kundan kunga boyib, ko‘payib boryapti. Global dunyo, jahondagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy o‘zgarishlar milliy tillarda o‘z aksini topmoqda. Masalan, Turkiyadagi zilzila sabab Xatay viloyatining G‘oziapter yaqiniga joylashgan Ovakent qishlog‘ida o‘n besh mingdan ortiq etnik o‘zbeklar yashashini va ular o‘zbek tilida muloqot qilishi ma’lum bo‘ldi[2]. Ovakent Turkiyaning Suriya bilan chegaradosh hududlaridan sanaladi. Mazkur qishloqda yashovchi o‘zbeklar nutqiga rasmiy til sanalgan usmonli turkcha va qo‘shni arab tilining ta’siri kuchli. Demak, bugun Ovakent shevasi ham alohida o‘rganilishi lozim. Bunga o‘xshash biz bilmagan sheva va dialektlar qancha!(?)

O‘rganganlarimizni ham yangicha qarash bilan qayta-qayta ko‘rib chiqishimizga to‘g‘ri kelyapti. Shulardan birini Andijon dialekti, uning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini areal o‘rganish, yonidagi shevalarga ta’sirini aniqlash masalasi takshil etadi.

O‘zbek tili yuqorida aytganimizdek, dunyoning eng boy tillaridan biridir. Uning boqiyligini ta’minlab turuvchi o‘q tomirlari bor. Toshkent dialekti, Samarqand dialekti, Surxon dialekti, Qarshi dialekti, Buxoro dialekti – sanoqni mingdan oshirishimiz mumkin. Ularning har biri o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiysida munosib o‘rin tutib kelgan. Shunday shevalardan birini Andijon dialekti tashkil etadi. Bu dialekt o‘zbek adabiy tiliga tayanch bo‘lgan asoslardan biridir.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida keltirilgan «*Eli turkdur. Shahri va bozorasida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim Mir Alisher Navoiy musannafoti bovujudkim Hirida nash’u namo topibtur, bu til biladur»*[3], – degan satrlar Andijon shevasining qadimdan o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi o‘rniga ishora qilib turibdi.

Moziy bizdan juda olisda va unda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarning aksariyatini yillar shamoli uchirib ketgan, biroq yozma manbalar, tarixiy hujjatlar, eng muhimi, aholining bugungi qatlami xalq tiliga oid barcha ma’lumotlarni o‘zida muntazam saqlab kelmoqda.

Ma’lumki, o‘zbek tilining tayanch dialektlaridan biri sanalgan Andijon shevasining fonetik, morfologik xususiyatlari o‘tgan asrning 60-yillar oxirida professor S.Ibrohimov tomonidan atroflicha o‘rganilgan edi. Olim «Asaka, O‘sh, O‘zgan shahar shevalari asosan Andijon shevasi bilan bir xil ekanini e’tiborga olganda, Andijon, O‘zgand, O‘sh, Asaka, Jalolobod, Qo‘qonqishloq, Qorasuv, Qo‘rg‘ontepa, Poytug‘ va ularning atrofidagi qishloqlarning shevalarini birgalikda Andijon dialekti deb nomlansa, to‘g‘riroq bo‘lar edi», – degan xulosa bergandi[4]. Oradan yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Mana shu davr ichida Farg‘ona vodiysining siyosiy, shu bilan birga lisoniy xaritasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi: mustaqil O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari qad rostladi. Har ikkala mamlakat o‘z hududlarida o‘zbek va qirg‘iz tillarini davlat tili deb e’lon qildi. Qirg‘izistonda o‘zbek, O‘zbekistonda qirg‘iz diasporasi vujudga keldi. Sobiq ittifoq davrida aholisi to‘la o‘zbeklardan tashkil topgan O‘sh, O‘zgan, Jalolobod shaharlarining etnik tarkibida ham siljishlar ro‘y berdi, yuqoridagi sha-

[1] Ashirboyev S. Areal lingvitika. – Toshkent: Bookman print, 2023. – 4 b.
[2] kun.uz.
[3] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – 64-б.
[4] Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. – 14-б.

harlarda qirg‘iz millatiga mansub bo‘lgan so‘zlashuvchilarning soni sezilarli darajada ortdi. Bu borada Qirg‘iziston Respublikasi bir tomonlama yo‘l tutmoqda, o‘z hududidagi yerlarni mamlakatda ko‘pchilikni tashkil etuvchi qirg‘iz millati nomiga nisbat berishga urinmoqda. Masalan, Qirg‘iziston Respublkasi Juqori Kengasi 2025-yil 10-sentabr kuni Jalolobod shahrini Manas nomiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorni ma’qulladi. Azaldan bu shaharda o‘zbek millatiga mansub aholi yashab kelgan. 1909-yilgi ma’lumotlarda shahar aholisining soni 1100 kishshi deb ko‘rsatiladi va o‘zbeklardan iboratligi qayd etiladi. Hozirda bu yer aholisning 30 foizini o‘zbeklar tashkil qiladi. Bunday nisbatni boshqa shaharlarda ham kuzatish mumkin. Shunga ko‘ra, Qirg‘izistondagi o‘zbeklar nutqiga qirg‘iz tili elementlari kuchaydi. Masalan, «o» tovushi o‘rnida «ə» unlisining qo‘llanishi ko‘zga tashlandi: [çə*y*]; [*ətə*]; [*bələ*] kabi.

O‘sh, Jalolobod viloyatlariga borib qolsangiz, ko‘chalarda [*et*]; [ü*y eti*] degan yozuvlarga duch kelasiz. Bu yozuvlar «*go‘sht*», «*mol go‘shti*» degan ma’noni bildiradi va o‘sha yerda yashovchi o‘zbeklar nutqida faol qo‘llanadi. Erkak o‘qituvchiga [ɔ*g‘ay*]; ayol o‘qituvchiniga [ɔ*pay*]; kattalarga [çoɳ] deb murojaat qilish odatiy hol sanaladi.

Andijon viloyatining Marhamat, Buloqboshi, Xo‘jaobod, Jalolquduq, Qo‘rg‘ontepa, Paxtaobod, Izboskan kabi tumanlarning Qirg‘iziston bilan chegaradosh qishloqlarida ham qirg‘iz tili unsurlarini ishlatish kuzatiladi. Bu ma’lumotlar S.Ibrohimovning Andijon shevasi haqidagi fikrlarini tahrir etilishini talab qiladi. Bir paytlari bitta dialektal zonani tashkil qilgan O‘sh, O‘zgan, Jalolobod shaharlari shevasi endilikda alohida kichik dialektal zonaga aylanib bormoqda.

Prof. S.Ashirboyevning fikricha: «Til zonalarini belgilashda muayyan tilning xalqaro ijtimoiy-siyosiy mavqeyi, madaniy va geografik joylashuvi muhim rol o‘ynaydi, bunda muayyan til atrof tillar hududida yoki dunyo bo‘ylab keng hududlarda tarqaladi. Bu til tarqalgan hudud o‘sha til bilan ataladigan til zonasini tashkil etadi va shu til barcha aholiga tushunarli bo‘ladi hamda bu hududda ijtimoiy-siyosiy jihatdan ustun bo‘lgan til, milliy til yoki xalq tili mustaqil qo‘llanishi davom etadi»[1].

Andijon dialekti hozirda atrof tumanlar bilan birgalikda yagona dialektal zonani tashkil etgani bilan uning ichki bo‘linishlari ham bor. Bu kabi hodisani prof. S.Ashirboev tarixiy kontinium deb atagan va Toshkent shahridagi Chorsu, Beshyog‘och, Eski Jo‘va, Xadra mavzelarida yashovchi aholi nutqida kichik dialektal farqlar borligini aniqlagan[2] .

Bu kabi holat Andijon dialektal zonasi uchun ham juda muhim. Zona uchun innovatsion markaz sanalgan Andijon shahrining o‘zida ham yuqoridagi kabi dialektal manzara mavjud. Shaharning sharqiy qismida joylashgan va ichkari tomon cho‘zilib borgan Eskilik, Birlashgan, Uyg‘urobod mahalla fuqarolar yig‘inlarida istiqomat qiluvchi aholi tarixan Xo‘tan, Qashqar, Yorkent tomonlardan ko‘chirib kelingan va ular tilida (asosan, qariyalar nutqida) uyg‘ur tili elementlari saqlanib qolgan.

Paxtaobod, Shahrixon, Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Izboskan, Xo‘jaobod tumanlari, Asaka shaharidagi Qashqarqishloq, Qashqarmahalla, Qashqarlik, Uyg‘urlik, Uyg‘ur, Uyg‘urobod, Uyg‘urmahalla, Uyg‘urqishloq, Do‘lan, Ortish, Ozox, Ho‘tan, Tovoqchi, Kepakchi, Eshakchi, Tuqyo, Shavruq, To‘za, Qorakiy, Godira kabi joylarda uyg‘ur millatiga mansub aholi yashaydi va ularning tilini o‘rganish bizga o‘zbek-uyg‘ur til kontaktlari haqida yangi ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin.

Manbalarga ko‘ra, Muhammadalixon 1826-1831 yillar davomida Qashqarga yurish qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qiladi hamda 70 ming uyg‘ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko‘chirib keltiradi va Andijonsoydan ariq qazib, uning ikki qirg‘og‘iga joylashishga ruxsat beradi[3].

Hozirda Andijon shahrida *Xo‘tanariq* (xalq ichida *Qo‘tonariq* deb nomlanadi), *Uyg‘ur masjid, Uyg‘ur mahalla* kabi nomlarning saqlanib qolgani fikrimizning isbotidir.

Ma’lumki, innovatsion markaz muayyan izoglassaning chiqib kelish, tarqalish nuqtasi sanaladi. Mazkur markazdan uzoqlashgan asari dialektologik o‘zgarishlarga duch kelinaveradi va rang-barang sheva manzaralariga guvoh bo‘linadi. Buni turli sheva vakillarining viloyat hududlari bo‘ylab joylashishiga bog‘liq holda izohlash lozim. Masalan, viloyatning Baliqchi tumani uning g‘arbiy-shimoliy qismiga joylashgan. Tumandagi Olimbek, O‘rmonbek, Orolxon, Bo‘ston, Guliston, Siza qishloqlarida qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi istiqomat qiladi. *Chiqib* o‘rnida [çɪg‘ɪp]; ena [*inə*]; ota *[ata*] deyuvchilar, asosan, shu tumanga joylashgan. Biroq, qayd etish lozimki, bitta lahjaga kiruvchi shevalar o‘rtasida ham yillar o‘tgani sari atrof shevalar ta’sirida o‘zgarishlar sodir bo‘lib borishi mumkin. Masalan, Olimbek, O‘rmonbek, Orolxonga nisbatan Siza qishlog‘i aholisi nutqida «dj»lashish hodisasi zaifroq, chunki mazkur qishloq shaharga nisbatan yaqin masofada joylashgan va o‘rtada «y»lovchi Chinobod qishlog‘i bor.

[1] Ashirboev S. Areal lingvitika, 77-b.
[2] Ashirboev S. Areal lingvitika, 96-b.
[3] R.T. Shamsutdinov, A.A. Ishoqov. Andijon tarixidan lavhalar. – Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2013. – 592 b.

Bu kabi qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi ko‘proq Baliqchi tumanidagi *Yettiqashqa, Tovuldi, Sirmoq, O‘lmas, Katta o‘lmas, Kichik o‘lmas, Puchug‘oy, Oqtikon, Tumor;* Izboskan tumanidagi *Qipchoqovul, Qipchoqqo‘rg‘on, Chang‘aroqchi, Puchug‘oy, Bo‘g‘och, Tuyachi, Elatan, Qo‘g‘ay, Oqbo‘yra, Qipchoq, O‘lmas;* Oltinko‘l tumanidagi *Tumor (Dumar), Oqtumor, Qizilmush, Qipchoq;* Asaka tumanidagi *Oqbo‘yra, Tumor, Tuyachi, Qipchoq, Elashqipchoq, Birinchi Qipchoq;* Shahrixon tumanidagi *Qorabo‘yin, Qipchoqqo‘rg‘on, So‘zoq, Tumor, O‘rtatumor, Chektumor;* Marhamat tumanidagi *Tuyachi;* Xo‘jaobod tumanidagi *Tuyachi, So‘zoq*; Buloqboshi tumanidagi *Suzoq, So‘qoloq, Tuyalas, Tuyachi* qishlog‘larida ham qipchoq tilli sheva vakillarini uchratish mumkin[1] .

Mazkur qishloqlar aholisining nutqini areal lingvistika nuqtai nazaridan o‘rganish bizga Andijon viloyatining tarixi, bu yerda yashovchi aholining turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari haqida noyob ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin.

Viloyatda o‘zlarini mahalliy turklar deb atovchi alohida etnik guruhlar yashshaydi. Ular Andijon tumanidagi *Turk*, Qo‘rg‘ontepa tumanidagi *Turkobod,* Marhamat tumanidagi *Turk, Kaltatoy, Xo‘jato‘pi,* Buloqboshi tumanidagi *Yapaloqboshi, Chaqar, Bozorxidirsha, Olabaytol, Jinnilar, Barlos*, Xo‘jaobod tumanidagi *Yetmishmergan, Garaguri, Kaloqcha, Barlos* kabi qishshloqlarda istiqomat qilishadi[2].

Ushbu qishloqlar asosan viloyatning janubiy hududlariga, ya’ni tog‘ oldi va qirliklariga joylashgan bo‘lib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanishadi. Areal jihatdan alohida o‘rganilishi lozim qatlam.

Paxtaobod tumanida *Arabqishloq*, Izboskan tumanida *Toshloqarab, Tunukaarab, Arabmahalla,* Marhamat tumanida *Arab, Arabiy to‘pi,* Shahrixon tumanida *Tojikarab, Cho‘jaarab, Qizilarab, Arabto‘pi,* Bo‘z tumanida *Mirarab, Arabmozor,* Baliqchi tumanida *Kattaarab, Kichikarab* qishshloqlarida yashoqchi aholi o‘zlarini Qutayba ibn Muslim davrida vodiyga kelgan arablarga olib borib taqashadi. Qiyofada, urf-odatlarda, mashg‘ulotlarida arablarga xos belgilar saqlanib qolgan. Mazrkur joy vakillarining nutqi ham areal jihatdan deyarli o‘rganilmagan.

Hozirgi kunda viloyatning Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Xo‘jaobod, Marhamat, Buloqboshi tumani hududlarida qirg‘izlarning *bag‘ish, sayoq, mogoldor, chonbag‘ish, jedigar, munduz, basiz, sari, qorabog‘ish, qipchaq, nayman, kesek, teyit, qondi, orgu jonkesak, qondi, bo‘ston, naygut, avot, tyolas, adegin, mungush* urug‘lari yashaydi va shunday deb nomlangan qishloqlarda, mahallalarda istiqomat qilishadi. Ularning nutqida qirg‘iz-o‘zbek tili unsurlari aralash ishlatiladi[3].

Shuningdek, Andijon, Baliqchi, Oltinko‘l, Shahrixon, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa tumanlarida qoraqalpoqlarning *mang‘it, keneges, qipchoq, qo‘ng‘irot, oqmang‘it, qoramang‘it, to‘qmang‘it, sho‘hmang‘it, bekmang‘it, bo‘rimang‘it, to‘lqinmang‘it, daumang‘it, shuyit, temirxo‘ja, jamansho, maytan, uyruchi, teliming, nayman, xitoyqipchoq, jayqipchoq, besari, orolboy, oytekiga; qo‘ng‘irot* urug‘i vakillari turmush kechiradi[4].

Andijon shahridagi Tojik, Asaka tumanidagi *Kattatojik, Tojikmahalla, Tojikobod,* Oltinko‘l tumanidagi *Xonlibog‘i, Oftobachek, Tojik qishloq,* Xo‘jaobod, Paxtaobod va Baliqchi tumanlaridagi *Tojikmahalla,* Buloqboshi tumanidagi *Tojik-1, Tojik-2* mahallasi, Shahrixon tumanidagi *Sho‘rtojik,* Bo‘z tumanidagi *Matchoyi* qishloqlarida tojik millatiga mansub aholi yashaydi va ular o‘z tillarida tojik tili elementlarini saqlab qolgan[5].

Ko‘rinib turganidek, Andijon viloyatining areal manzarasi turli-tuman urug‘, qabila vakillarining aralash yashashi hisobiga o‘ziga xos tarzda jilolanib ko‘rinadi. Har bir hududga xos bo‘lgan sheva unsurlarini o‘rganish bizga viloyat hududiga aholi migratsiyasi, boshqa sheva vakillari bilan intetpretatsiyasi, urf-odatlari, dunyoqarashi haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishi tabiiy.

Kuzatishlarimiz natijasida mahallimy turk, qirg‘iz, arab millatiga va qipchoq urug‘iga mansub aholi tilida chorvachilik, jumladan, qo‘y, mol, ot boqish bilan bog‘liq so‘z va tushunchalarning ko‘plab qo‘llanishiga guvoh bo‘lindi.

Masalan, *chori, panji, bir oziq, ikki oziq, uch oziq, to‘rt oziq* (uy hayvonlarining yoshiga nisbatan) kabi so‘zlar ular tilida faol.

Uyg‘ur millati vakillari tilida *lazi, cho‘zma lag‘mon, shilpildoq* kabi taom bilan bog‘liq nomlari hamon saqlanib kelmoqda.

Dialektal farqlar oddiy kundalik murojaat shakllaridan tortib, uy jihozlarigacha, o‘simliklar va hayvonot dunyosidan to kiyim-kechak, oziq-ovqat, narsa-buyum nomlarigacha – barcha sohalarda uchraydi.

Andijonliklarning ichida huvnonmi-o‘ramami (xamir ovqat), laganmi-tovoqmi, chirtak/chirkakmi

[1] Ergashev A. Andijon viloyati etnotoponimlarining areal-onomastik tadqiqi. – Andijon: Hayot, 2024. – 44 b.
[2] Ergashev A. Ko‘rsatilgan manba, 174-b.
[3] Ergashev A. Ko‘rsatilgan manba, 74-b.
[4] Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: КГИ, 1959. – 163 с.
[5] Ergashev A. Ko‘rsatilgan manba, 68-b.

yo kivirtikmi (hasharot) degan masalada tortishuvlar bor. Bu ham tilimizning ranginligiga ishora.

Umuman olganda, yagona bo‘lib ko‘ringan Andijon dialektining ichiga kiriladigan bo‘linsa, uning shu qadar rang-barang va etnik jihatdan ko‘p tarmoqli ekaniga guvoh bo‘linadi. Mazkur etnoslarning nutqini areal jihatdan o‘rganish, tadqiq qilish bizga juda ko‘p narsalarni berishi mumkin. Zero, davr bizdan shuni talab qilmoqda.

Резюме. Maqolada Andijon dialekti, uning shevalari, mazkur dialektning o‘zbek adabiy tili shakllanishi va taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritildi. Asosiy etibor ushbu dialektning areal jiahatdan tarqalishiga qaratildi.

Резюме: В статье раскрывается роль андижанского диалекта в формировании и развитии узбекского языка, его диалектов и говоров, а также узбекского литературного языка. Основное внимание уделено выявлению ареала распространения этого диалекта.

Rezume: This article explores the role of the Andijan dialect in the formation and development of the Uzbek language, its dialects and subdialects, and the Uzbek literary language. The focus is on identifying the area of distribution of this dialect.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

GENDEROLEKSEMALARNING NOMINATIV FARQLANISHI

Hakimov Muhammadxon Xo‘jaxovich,
Farg‘ona davlat univtrsiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Ayni paytda genderoleksemalar ham borliqdagi narsa va hodisalarni nomlovchi birliklar sifatida erkak va ayollarga xos tushunchalarni farqlashda ishtirok etadi, turli jinsga mansub tushunchalarning nomi sifatida ularni differentsiatsiyalash ham nazarda tutilgan muammo mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Tilning boshqa sathlariga nisbatan leksik sath birliklari yuzasidan tadqiqot olib borish bir muncha osondek tuyiladi. Biroq bu sathda ham genderoleksemalar tizimiga oid lug‘aviy birliklar bilan ishlash rejalashtirilgan tadqiqot mohiyatidan kelib chiqadi, bunda gender muammolari tadqiqiga nominativ nuqtayi nazardan yondashuv ishning mohiyatini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, «gender erkak va ayollar madaniyatiga oid akkumulatsiyalangan tasavvurlardan iborat konvensional ideologik konstrukt sifatida tushuniladi»[1] va uning mohiyati tilning leksik birliklarida ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham har qanday ifoda shaklining mazmuni tilning leksik sistemasi bilan bog‘lanadi. Erkak va ayollar nutqiga xos tushunchalar nominatsiyasi ifoda shakli uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va shu madaniyatni ifodalovchi nomlar sifatida tahlilga tortiladi. Nimani nomlashidan qat’iy nazar nominativ birliklar o‘sha tilga mansub xalq yoki til egasi madaniyatini ifodalaydi, belgi sifatida esa genderoleksemalar ham u yoki bu ma’no orqali turlicha axborotlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu tildagi leksemalarda bo‘lgani singari frazeologizmlar, paremalar va hatto hikmatli so‘z va aforizmlarda ham ko‘zga tashlanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan leksema va boshqa ifoda vositalarining har biri nominativ xususiyatga ega bo‘lib, ular leksik, frazeologik va kontekstual nomlanishlar sifatida izohlanadi. Leksik va frazeologik xarakterdagi nomlar narsa va hodisani ma’lum bir xususiyatlar asosida atash uchun xizmat qilsa, matn

[1] Мудрая М.В. Реконструкция системы гендерно маркированных лексем (на материале пословиц) //Филологические науки. Вопросы теории и практики 2017. № 10 (76) с. 143-144 www.Gramota.net/editions/2.html (murojaat sanasi: 1.10.2024)